

YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQIY AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTRISHDA TA'LIM TIZIMI VA MILLIY QONUNCHILIKNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14526234>

Xayrullaev Axror Aktam o'g'li

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, mustaqil tadqiqotchisi

Maqolada bugungi kunda o'smir yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim bo'lgan qator omillar yoritib berilgan. Shuningdek, milliy qonunchilik tamoyillari asosida raqamli jamiyatda yoshlarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish tahlil etilgan.

Kalit so'zlar

Yoshlar, huquqiy savodxonlik, axborot, ta'lim tizimi, qonunchilik

В статье освещается ряд факторов, которые сегодня важны для повышения правовой культуры подростков. Также проанализировано развитие правовой грамотности молодежи в цифровом обществе на основе принципов национального законодательства.

Ключевые слова

Молодежь, правовая грамотность, информация, система образования, законодательство

The article highlights a number of factors that are important in enhancing the legal culture of teenage youth today. It also analyzed the development of legal literacy of young people in a digital society based on the principles of national legislation.

Key words

Youth, Legal Literacy, information, education system, legislation

Mamlakat rivojlanishida huquqiy madaniyatni bugungi kunning talabiga mos ravishda yuksaltirish jamiytdagi insonlarning kelajakka bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Huquqiy madaniyati yuksak rivojlangan davlatning kelajagi ham ravnaq topib boradi. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun huquqiy ong va madaniyatni yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. "Huquqiy madaniyat

deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz" - deb ta'rif berilgan.

Biz jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilash, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Zero, faqat erkin, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o'z huquqlaridan to'laligicha foydalana oladi.

Huquqiy madaniyat - bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Shu bois huquqiy madaniyat deganda jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqealigi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topdigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda mamlakatda huquqiy-tartibot o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.

Bu borada ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish nazarda tutilmoqda. Bunda, ayniqsa, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratiladi. Haqiqatdan ham, yosh avlod ongida nima yaxshi, nima yomon, nima mumkin-u nima mumkin emasligini, huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini odobaxloq normalari asosida tushuntirib borish hamda Bosh qomusimizdagi eng muhim tamoyillarni sodda tilda bolaligidan o'rgatib borish kelajakda o'z samarasini beradi. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'rni juda muhim. Shu bois milliy media makonida huquqiy mavzularga alohida e'tiborni yanada kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televideniye va radio eshittirishlarida tushuntirib borish zarur.

Rivojlangan mamlakatlarda milliy qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish tamoyillari asosiy o'ringa qo'yilgan. Bunga misol sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarida xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida —Amerika orzusil g'oyasi asosiy o'rinda tursa, —Olg'a, Singapur! shiori Singapur mo'jizasi islohotlari orqali hayotga tatbiq etilgan. Fransiyada barcha narsa inson va uning manfaatlari uchun, erkinlik, tenglik va birodarlik g'oyalari asosida davlat insonlarga cheksiz huquq va erkinliklarni yaratib bergan va ularni mamlakat manfaatlari yo'lida birlashtirgan. Xitoyda esa ma'naviy tarbiya tizimi ona vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish g'oyasi asosida tashkil etilgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Eron, Germaniya, Turkiya davlatlarida ilgari surilgan o'ziga xos g'oyaviy yo'nalishlar ularning taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida yoshlarning jamiyatimizdagi o'rni haqida to'xtalib, —...yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir, —degan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Uning ikkinchi bandi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan. Albatta bu qo'yilgan vazifalar zahirida yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish ham alohida ahamiyat kasb

etadi. Zero, huquqiy ta'limning maqsadi har bir kishiga amaliy faoliyatda zarur bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standartlari asosida olish imkoniyatini berishdan iborat.

Tarbiyaviy va o'quv ishlari shaxsning huquqiy ong darajasini inson, jamiyat, davlat manfaatlariga javob beradigan eng umumiy yuridik qonunlar va normalarni anglab yetishga qadar oshirishga yo'naltirilishi lozim. Huquqiy tarbiyaning o'tmishdan qolgan faqat bir tomonlama axborot berish – ma'rifatchilikka yo'naltirilganligini bartaraf etib, uni qonuniyligini mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish vazifalari bilan uzviyroq bog'lash zarur. Shuni alohida nazarda tutish kerakki, yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda ularni huquq, qonuniylik ruhida tarbiyalash, huquqiy ma'rifat, qonunga hamda huquqqa nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiribgina qolmay, balki shaxsning ijtimoiy-huquqiy faolligida, uning huquqiy madaniyatida o'z ifodasini topadi.

Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlar va qadriyatlarga chuqur hurmat-ehtiromli bo'lishga o'rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Jamiyatda yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish uchun yoshlar tarbiyasida huquqiy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish zarur. Yoshlarni tarbiyalashda huquq nazariyasini uni o'qitish metodologiyasini va globallashtirish jarayonida innovasion texnologiyalardan foydalanish zarur. Ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim fanlarini mazmunan yangilash. Oliy ta'lim muassasalarini mutaxassisligidan kelib chiqib huquqiy ta'lim fanlarini moslashtirish. Shu bilan bir vaqtda fuqarolarning huquqiy savodxonligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy mavzulardagi ruknlariga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan huquqiy muammolarni davriy nashrlar sahifalarida, televideniye va radio eshittirishlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirish hamda huquqiy targ'ibot masalasi bugungi kunda huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Huquq umumiy madaniyatning shunchaki bir qismi emas, balki uning o'zagi, negizi asosidir. Huquqiy madaniyat deganda, har bir davlatning qonun asoslari huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarini bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi - huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti haqida fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi. Jumaladan, shuni takidlash kerakki jamiyatni huquqiy madaniyatini oshirishda oliy ta'limning o'zida huquqiy bilim berish darajasi ya'ni amaliy jarayonlarda qatnashishini tashkillashtirishni yanada

jadallashtirish, Masalan "Milliy go'ya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida qolavaersa o'rta ta'lim maktablarida huquqiy fanlarni ko'proq qo'yilishiga etibor qaratilsa yanada ko'proq natijalarga erishishimiz mumkin. Yoshlar huquqiy madaniyati va ularni huquqiy tarbiyalashning moxiyatini faqat amaldagi qonun xujjatlarining meyorlari va prinsiplari to'g'risida bir qator bilimlarni qo'lga kiritishdan iborat deb qarash mumkin emasligi mutlaqo to'g'ri.

O'zbekiston aholisining 60 foizidan ziyodini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishi, yurtimiz ertasi ularning bugun qanday inson bo'lib shakillanayotgani bilan chambarchas bog'liqligi yosh avlod vakillariga jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Чубоева озодахон. — O'zbekistonda millatlararo totuvlikni ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslaril pedagogical sciences and teaching methods / 2022 – part 10.
2. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998, 11 -bet
3. 2. Odilqoriev H., Yakubov Sh. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadryatlar. -T.:2011, 56-bet.
4. 3. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. -Toshkent: Adolat, 2009.